

**BO'LAJAK TARBIYACHILARNI PEDAGOGIK AMALIYOT  
JARAYONIDA KASBIY FAOLIYATGA TAYYORLASHNING ILMIY-  
PEDAGOGIK TAVSIFI**

**Z.S.Qodirova**

*Universitiy of Businese science nodavlat  
oliy ta'lif muassasasi v/b dotsent*

**Annotatsiya:** Bo'lajak tarbiyachilarini salohiyatini oshirish, pedagogik malakalarini rivojlantirish, maktabgacha tahlim tashkilotlari me'yoriy hujjatlari mazmunini o'rGANISH masalalari, bo'lajak tarbiyachi kasbiy faoliyatini amalga oshiruvchi o'ziga xos xususiyatlari borasida fikr boradi.

**Kalit so'zlar:** Diagnostika, integratsiya, kasbiy, intellektual, integrativ, loyihalashtirish, tamoyillari qathiylik, talabchanlik, nazokat.

**Аннотация:** Будущий воспитатель педагог-это специалист по развитию навыков, дошкольник-это организатор обучения нормативному содержанию, воспитатель-это специалист по развитию профессиональной деятельности.

**Ключевые слова:** Диагностика, интеграция, профессионал, интеллектуал, интегратив, принципы комфорта, требовательностью

**Abstract:** A future educator is a specialist in skills development, a preschooler is an organizer of teaching normative content, an educator is a specialist in the development of professional activity.

**Keywords:** Diagnostics, integration, professional, intellectual, integrative, principles of comfort, demanding

Bugungi kunda yuksak ma'naviyatli va katta salohiyatli tarbiyachilarini tayyorlash davlat siyosati darajasidagi muammo ekanligi, bunda bo'lajak tarbiyachilarini kasbiy faoliyatga tayyorlash muhim ahamiyat kasb etishi, bu jarayonni amalga oshirishda malakaviy pedagogik amaliyotga jiddiy e'tibor berish zarurligi ma'lum bo'ldi.

Bo'lajak mutaxassislarda tizimli tahlil qilish va boshqa manbalar asosida amalga oshirilgan qobiliyatini shakllantirishga qaratilgan bilimlarning integrallashgan tizimini tatbiq etish va diagnostika qilish usullari ishlab chiqilgan; o'qitishning zamonaviy didaktik vositalari asosida bo'lajak mutaxassislarning kasbiy imkoniyatlarining rivojlanganligini integrativ texnologiya asosida baholash tizimi yaratilgan; kasb ta'lif jarayonini predmetlararo integratsiya asosida tashkil etish bo'lajak tarbiyachilarini kasbiy intellektual va psixodemotsional rivojlantirish va uning baholash texnologiyasi ishlab

chiqilgan; gumanitar va texnik sikldagi predmetlarning fanlararo o'zaro ta'sirlashuvining nazariy asoslari va amaliy faoliyatga qo'llanilishi diagnostika qilingan; integrativ loyihalashtirish tamoyillari va miqdoriy sifatiy yondashuv kontekstida o'qituvchi va talaba faoliyatini loyihalashtirish algoritmi ishlab chiqilgan; respublika ta'lim tizimida zamonaviy resurs tejamkor texnologiyalarni qo'llash asosida integratsion jarayonlar mexanizmi ishlab chiqilgan va mehnat bozorida bo'lajak mutaxassislarga bo'lgan real talab va ehtiyojlar ko'rsatkichlarini kompleks diagnostika qilish yo'nalishlari joriy qilingan.

Davlatimiz tomonidan bo'lajak tarbiyachilarni salohiyatini oshirish, pedagogik malakalarini rivojlantirish maqsadida ishlab chiqilgan maktabgacha ta'lim tashkilotlari me'yoriy hujjatlari mazmunidan kelib chiqib, bo'lajak tarbiyachi kasbiy faoliyatini amalga oshiruvchi o'ziga xos xususiyatlari aniqlandi.

Bo'lajak mutaxassis talaba va maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyachilar uchun turli tadbirlarni tashkil etish metodikasini ishlab chiqishga qaratilgan masalalar yoritilgan.

Bo'lajak tarbiyachilarni malakaviy pedagogik amaliyot jarayonida kasbiy faoliyatga tayyorlashda ilmiy-pedagogik tavsifi, uning o'ziga xos pedagogik xususiyatlari belgilanganligi, talabalarni kasbga tayyorlash bo'yicha o'qitiladigan umumkasbiy va ixtisoslik fanlarining takomillashtirilgan malaka talablari, fan dasturlarini ishlab chiqishda bo'lajak tarbiyachilarning kasbiy faoliyatga tayyorlash bo'yicha kompetentsiyalarning aniqlashtirilganligi bilan izohlanadi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida o'tkaziladigan pedagogik amaliyot-bunda ta'lim -tarbiya jarayonlarini va boshqa faoliyat turlarini mustaqil tashkil eta olish, bolalar va ota-onalar bilan ishlay olish malakalari shakllanadi, malakaviy bitiruv ishi bilan bog'langan tadqiqot-tajriba ishlarini o'tkazishga oid nazariy va amaliy bilimlar mustahkamlanadi, pedagogik bilimlarini chuqurlashtirish va pedagogik qobiliyatlarini yanada takomillashtirish masalalari hal etiladi.

Malakaviy pedagogik amaliyot davrida har bir bola shaxsiga hurmat, uning muammolariga e'tiborli bo'lish, sabr-bardosh, maqsadga erishish yo'llarini izlashda qat'iylik, talabchanlik, nazokat va shu kabi fazilatlarni tarkib toptirish lozim bo'ladi. Pedagogik texnologiyani egallah o'z fanining zamonaviy fanlar darajasida yaxshi bilishni tarbiyachining uslubiy bilimdonligini nazarda tutadi. Pedagogik texnikani egallah tarbiyachi shaxsini shakllantirishni va unga tarbiyalanuvchilar bilan muloqot ko'nikmasi va malakalarini egallanishini nazarda tutadi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mirziyov SH.M. “O’zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo’yicha Harakatlar strategiyasi to’g’risida”gi PF 4947 Farmoni. Harakatlar strategiyasi asosida jadal taraqqiyot va yangilanish sari risola. – T., 2017. – B.70-71.
2. Mirziyov SH.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo’lishi kerak. – Toshkent: O’zbekiston, 2017. – 104-105-b.
3. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori 20.04.2017 y.PQ-2909 Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to’g’risida Xalq so’zi, 2017y. 21.04.
- 4.O’zbekiston Respublikasining maktabgacha ta’lim kontseptsiyasi. – T., 2008. – 24 b.
- 5.O’quv-malakaviy amaliyot dasturi. (IIIkurs uchun) – T., 2011 – 61 b.

